Abduvali Qutbiddin (1960-2019)



Abduvali Qutbiddin (1960-2019)

Abduvali Qutbiddin 1960 yil 20 iyunda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tug‘ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1983).

Samarqand viloyat gazetasi «Lenin yo‘li» (hozirgi «Zarafshon») gazetasida adabiy xodim, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida muharrir, «Yozuvchi» nashriyotida yetakchi muharrir, bosh muharrir bo‘lib ishlagan.

Dastlabki she’riy to‘plami — «Nayson» (1988). Shundan so‘ng shoirning «Humo» (1989), «Baxtli yil» (1991), «Xayol kechasi» (1994), «Sen va sen uchun» (1996), «Uzoqdan olisga» (2007) kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan.

«Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlangan (1997).

2019 yil 8 dekabrda vafot etgan.

2023-09-25 22:31:52